

Bilim va malakalarni baholash agentligi Ilmiy-metodik
kengashining 2024-yil “21” – noyabrdagi 10 - son
bayoni bilan
MA’QULLANGAN

**UMUMTA’LIM FANLARINI BILISH DARAJASINI BAHOLASHNING MILLIY
TEST TIZIMI DOIRASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANI BO‘YICHA
YOZMA ISHNI BAHOLASHGA QO‘YILADIGAN
TALABLAR**

1.Umumiy qoidalar

1. Ushbu hujjat 2020-yil 6-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-fevraldagi “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 130-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 646-soni qarori hamda “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilab ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqildi.

2. Bilim va malakalarni baholash agentligi Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida ona tili va adabiyot fanidan yozma ishni baholash mezonini (keyingi o‘rinlarda – Mezon deb yuritiladi) ishlab chiqadi. Mezon Ilmiy-metodik kengash tomonidan tasdiqlanadi va agentlikning rasmiy saytida e’lon qilinadi.

**2. Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida
ona tili va adabiyot fanidan yozma ishni baholash jarayonini tashkil etish tartibi**

3. Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida ona tili va adabiyot fanidan yozma ishni baholash Bilim va malakalarni baholash agentligining Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi, shuningdek, tegishli vazirlilik va idoralar tomonidan tavsija etilgan fan mutaxassislari (keyingi o‘rinlarda – fan ekspertlari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Bilim va malakalarni baholash agentligi fan ekspertlarini tanlov asosida qabul qiladi. Fan ekspertlari bilan 1 (bir) kalendar yili davomida amal qiluvchi qo‘srimcha xizmat ko‘rsatish shartnomasi rasmiylashtiriladi. Fan ekspertlari yozma ishlarni tekshirish jarayoniga, asosiy ishlardan ajralmagan holda, imtihon o‘tkazilgan kundan javoblar e’lon qilingan kunga qadar (yigirma ish kuni davomida, xususan, tungi soatlarda ham) jalb etiladi.

5. Bilim va malakalarni baholash agentligi Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida ona tili va adabiyot fanidan yozma ishlarni

tekshirish jarayonini kompyuter (onlayn platforma)da masofaviy shaklda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

3. Fan ekspertlariga qo'yiladigan talablar

6. Fan ekspertlaridan tegishli fan (ona tili va adabiyot) bo'yicha oliv ma'lumot (bakalavr va undan yuqori daraja)ni tasdiqlovchi diplom hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport) talab etiladi.

7. Fan ekspertlari boshlang'ich kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi, MS Word va MS Excel dasturlarida ishlay olishi talab etiladi.

8. Fan ekspertlari uchun o'quv seminarlari tashkil etiladi. Shuningdek, ish jarayoniga oid axborotlar va maxfiy (konfidensial) ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyati fan ekspertlari zimmasiga yuklanadi.

9. Fan ekspertlariga Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy o'quv-amaliy markazi tomonidan tashkil etiladigan "Bilimlarni baholash testlarini ishlab chiqish nazariyasи va amaliyoti" kursida malaka oshirishi va sertifikat olish tavsiya etiladi.

10. Fan ekspertlaridan amaldagi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda darsliklar bilan tanish bo'lishi talab etiladi.

4. Yozma ishni tekshirish uchun qo'yiladigan asosiy talablar

11. Yozma ishni baholash uchun Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan tasdiqlangan Mezon asos bo'lib xizmat qiladi¹.

12. Yozma ish lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosida yozilishi talab qilinadi.

13. Yozma savodxonlikni baholashga yo'naltirilgan test topshirig'ida yozma ishning aniq turi (esse) ko'rsatiladi.

14. Yozma ishda talabgorning o'z mulohazalarini asoslashi va hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy voqelikka munosabatini bayon etishi, ma'lum bir vaziyat yuzasidan qarashlar tahlilini amalga oshirishi talab qilinadi.

15. Yozma ishning bayon uslubi (publitsistik (ilmiy-ommabop) uslub) aniq belgilab ko'rsatiladi.

Xususan, boshqa uslub elementlari kuzatilmagan yozma ish matni "to'liq publitsistik uslubda yozilgan", boshqa uslub elementlari (matnning uchdan bir va undan kam qismida) uchrasa, "publitsistik uslubdan chekinilgan", boshqa uslub (badiiy yoki so'zlashuv) elementlari (matnning uchdan ikki qismida) uchrasa, "qisman publitsistik uslubda yozilgan" deb xulosalanadi. Shuningdek, to'liq badiiy uslubda yoki to'liq so'zlashuv uslubida yozilgan yozma ishlar uchun Mezonda belgilangan tartibda ball qo'yiladi (1-band)².

¹ <https://uzbmb.uz>

² <https://uzbmb.uz>

16. Yozma ishda topshiriq shartida belgilangan vaziyat yuzasidan ikki xil qarash va talabgorning shaxsiy qarashlari yoritilishi (qarshlar bayoni asosiy qismda aks etadi) talab etiladi. Fan eksperti tomonidan vaziyat yuzasidan qarashlar qay darajada yoritilganligi, shuningdek, talabgor o‘z shaxsiy qarashlarini qay darajada bayon eta olganligi aniqlanadi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi (2-band).

Xususan, vaziyat yuzasidan har ikkala qarash yoritilgan (to‘la yoki yuza) hamda shaxsiy qarash ifodalanmagan bo‘lsa, “vaziyat yuzasidan har ikkala qarash yoritilgan, talabgorning shaxsiy qarashi yoritilmagan” tarzida; qarashlardan bittasi to‘la yoritilgan, ikkinchi qarash hamda shaxsiy mulohaza yoritilmagan yoki qisman yoritilgan bo‘lsa, “vaziyat yuzasidan qarashlarning bittasi to‘la yoritilgan” tarzida; qarashlardan bittasi yuza yoritilgan, ikkinchi qarash hamda shaxsiy mulohaza yoritilmagan bo‘lsa, “vaziyat yuzasidan qarashlarning faqat bittasi yuza yoritilgan” tarzida xulosalanadi. Vaziyat yuzasidan har ikkala qarash hamda shaxsiy mulohaza yoritilmagan bo‘lsa yoki har ikkala qarash yoritilmay faqat shaxsiy mulohaza yoritilgan bo‘lsa, “vaziyat yuzasidan qarashlar yoritilmagan” tarzida xulosalanadi (2-band).

17. Fan eksperti tomonidan yozma ishda talabgorning o‘zi bayon qilayotgan fikri dalillab, asoslab berishi va bu dalilning ishonchli, qiziqarli ekanligini ta’minlashi (talabgor keltirilgan noto‘g‘ri ma’lumot esse sifatini tushirib yuborishini inobatga olishi lozim) tahlil qilinadi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi (3-band).

Xususan, har ikkala qarash tarafdarlarining fikri dalillansa, “qarashlar dalillar bilan asoslangan”; qarashlardan biri dalillanmagan bo‘lsa, “qarashlardan faqat bittasi dalillangan”; keltirilgan ayrim dalillar vaziyatga mos bo‘lmasa (qarashlardan bittasi uchun keltirilgan dalil vaziyatga mos bo‘lib, ikkinchisi uchun keltirilgan dalil mos bo‘lmasa yoki bitta qarash uchun ham vaziyatga mos, ham vaziyatga mos bo‘lmasa bir nechta dalil uchrasa), “ayrim dalillar vaziyatga mos emas”; har ikkala qarash uchun dalil bayon qilinmasa yoki keltirilgan dalillar har ikkala qarashni asoslashga xizmat qilmasa, “qarashlar dalillanmagan” tarzida xulosalanadi (3-band).

Shuningdek, fan eksperti tomonidan talabgor keltirgan ma’lumotlarning (sanalar, joy nomlari, shaxs nomlari, manba va h.) to‘g‘ri-noto‘g‘riliği tekshirilmaydi.

18. Yozma ish matni uch qism (kirish, asosiy qism, xulosa)dan iborat bo‘lishi lozim. Fan eksperti tomonidan mazkur qismlardan nechtasi va qay darajada yozilganligi aniqlanadi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi (4-band).

“Qismlardan faqat ikkitasi” ifodasida kirish va asosiy qism, asosiy qism va xulosa yoki kirish va xulosa nazarda tutiladi. “Qismlardan faqat bittasi” ifodasida kirish qismi nazarda tutilmaydi (asosiy qism yoki xulosa nazarda tutiladi).

19. Fan eksperti tomonidan yozma ish matnida mantiqiy qurilishning to‘g‘riliği (gapdagi gap bo‘laklarining joylashuvi, sintaktik birliklarning shakllantirilishi, matn qismlari ketma-ketligi va h.) hamda mazmuniy-mantiqiy izchillik (gapdagi so‘zlarning mazmunan mosligi, matndagi jumlalarning mazmuniy izchillikda joylashishi, bayon

qilinayotgan fikrning voqelikka mosligi va h.)ka amal qilinganligi tekshiriladi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi (5- va 6-bandlar).

20. Fan eksperti tomonidan yozma ish matnining xatboshilarga to‘g‘ri ajratilishi tekshiriladi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi. Xatboshilarga ajratishda kuzatiladigan xatolar mantiqiy qurilishning buzilishi sifatida qaraladi (5-band). Esse qismlarida ayni bir fikrning takrori (ifoda shakli o‘zgargan bo‘lsa ham) **mazmuniy izchillikning buzilishi** hisoblanadi (6-band).

21. Fan eksperti tomonidan yozma ishda orfografik hamda punktuatsion qoidalarga rioya qilinishi tekshiriladi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi (7- va 8-bandlar).

Fan eksperti yozma ishni tekshirishda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining imlo qoidalari (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda 339-son “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqida”gi qarori asosida tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” hamda shu qoidalarga asoslangan imlo lug‘atlari)ga asoslanishi lozim.

Imlo lug‘atlaridagi nomuvofiqliklar fan eksperti tomonidan aniqlanadi va ikki xillik kuzatiladigan so‘zlar imlosi xato sifatida belgilanmaydi (masalan, oktyabr – oktyabr).

Xususan, harflar imlosi, tutuq belgisini qo‘llash, asos va qo‘srimchalar, qo‘sib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh harflar imlosi va ko‘chirish qoidalariiga zid holatlar **imloviy xato** hisoblanadi. Tinish belgilarining mazmun va grammatik talablarga ko‘ra qo‘llanishiga oid qoidalarga zid holatlar **ishoraviy (punktuatsion) xato** hisoblanadi.

Yozma ish lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi harflarning yozma shaklidan foydalanib yozilishi tavsija etiladi, ammo yozma ishning bosma harflar asosida yozilganligi xato sifatida belgilanmaydi.

Yozma ish matnida uchraydigan kirill alifbosi elementlari yoki so‘zlarning kirill alifbosida yozilishi imloviy xato hisoblanadi.

Yozma ish matni to‘liq kirill alifbosida yozilgan bo‘lsa, tekshirilmaydi va 0 ball bilan baholanadi.

Ayni bir xato (masalan, shahar so‘zining “shaxar” tarzida yozilishi) matnning bir necha o‘rnida takror kuzatilsa, bitta xato sifatida belgilanadi.

Bitta so‘zda kuzatilgan bir nechta xato (masalan, hamma vaqt so‘zining “xammavaqt” tarzida yozilishi) kuzatilsa, bitta xato sifatida belgilanadi.

O‘zbek alifbosida mayjud bo‘limgan harflar bilan yoziladigan neologizmlar (xususan, fan-texnikaga oid atamalar, yangi paydo bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy tushunchalarni nomlovchi so‘zlar)ning imlosidagi ikki xillik, hozirgi o‘zbek adabiy tilida me’yorlashtirilmaganligi bois, xato sifatida belgilanmaydi. Masalan, “Vord”

- “Word”, “Twitter” – “Twitter” kabi. Bu kabi so‘zlar o‘zbek tili yoki o‘zlashtirilgan til qoidalariiga asoslanib yozilishi talab qilinadi.

Hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanayotgan, ammo adabiy tilga o‘zlashmagan shartli nomlarning imlosi aslicha saqlansa, xato sifatida talqin qilinmaydi. Masalan, “Power Point”, “Web”, “Java skript” kabi.

Matnda bitta qoida asosida kuzatiladigan ishoraviy xatolar bir nechta o‘rinda takrorlansa, bitta xato sifatida belgilanadi.

Bitta gap tarkibida tinish belgilari bilan bog‘liq xatolar bir nechta bo‘lib, boshqa-boshqa qoidalarga asoslangan bo‘lsa, bir nechta xato sifatida alohida-alohida sanaladi.

22. Fan eksperti tomonidan yozma ish matnida til birliklari uslubiyatiga rioya qilinishi tekshiriladi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi (9- va 10-bandlar).

Xususan, so‘z yasovchi qo‘srimchalarni noo‘rin qo‘llash, shakl yasovchi qo‘srimchalarni almashtirib qo‘llash, ortiqcha qo‘llash, noo‘rin takrorlash yoki noo‘rin tushirib qoldirish **qo‘srimcha qo‘llashga oid xato**, leksik birliklarni ortiqcha qo‘llash, tushirib qoldirish, noo‘rin takrorlash, jumla mazmuniga hamda o‘zi bog‘lanayotgan leksik birlikning atash ma’nosiga mos bo‘lmagan o‘rinlarda qo‘llash, paronimlarni almashtirib qo‘llash, eskirgan so‘zlarni noo‘rin qo‘llash, jumla uslubiga mos bo‘lmagan sinonimni tanlash, modallar va yordamchi so‘zlarni noo‘rin qo‘llash kabi holatlar **so‘za qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xato** hisoblanadi.

Neologizmlarning qo‘llanishi so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xato hisoblanmaydi.

Shuningdek, talabgorning til birliklaridan o‘ziga xos mahorat bilan foydalana olishi ijobjiy baholanadi.

23. Fan eksperti tomonidan yozma ish matnida vaziyatga mos tarzda leksik birliklardan to‘g‘ri foydalanilganligi (paremiologizmlar va vaziyatga mos maxsus atamalardan o‘rinli va unumli foydalana olish) tekshiriladi va Mezonda belgilangan tartibda ball qo‘yiladi (11-band).

Paremiologizmlar – barqaror birikmalar (tasviriy ifodalar, iboralar, maqollar, matallar).

Vaziyatga mos maxsus atamalar – yozma ish shartida berilgan vaziyatga xos soha atamalari. Bunday birliklar so‘z yoki birikma shaklida qo‘llanishi mumkin.

24. Yozma ish matnida leksik va grammatik birliklarni tanlashda adabiy til meyorlariga amal qilish talab qilinadi. Yozma ishda dialektizmlar, vulgarizmlar, varvarizmlarni qo‘llash taqiqlanadi.

Dialektizmlar – shevaga xos birliklar, ya’ni ma’lum bir hududdagina qo‘llanuvchi va shu hudud aholisigagina tushunarli bo‘lgan so‘z yoki qo‘srimchalar.

Vulgarizmlar – qo‘pol, uyatli so‘zlar, qarg‘ish va haqorat ifodalavchi so‘z va birikmalar.

Varvarizmlar – hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashmagan, til qoidalariga zid tarzda qo‘llanuvchi yot so‘z, qo‘sishimcha va birikmalar.

Disfemizmlar – tushunchaning qo‘pol tarzda ifoda etilishi, salbiy ottenkali, salbiy bo‘yoqdir so‘zlar.

25. Fan eksperti Mezonda belgilangan barcha bo‘limlar yuzasidan tegishli ballni belgilaydi (12 ta bandning har biri uchun ball belgilaydi. Bitta bandda ikki marta ball belgilash mumkin emas).

26. Yozma ishni baholashda husnixat (chiroyli yoki xunuk yozuv) asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Yozma ishda husnixat bilan bog‘liq (kalligrafik) omil ta’sirida matnni o‘qish va anglashda jiddiy muammo yuzaga kelsa, fan eksperti BBAning mas’ul xodimlariga murojaat qiladi va BBAning fan mutaxassislari tomonidan berilgan xulosa asosida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

27. Yozma ishning xulosa qismida talabgor topshiriq shartida berilgan vaziyat yuzasidan o‘zi tarafdirlik qilayotgan va qo‘llab-quvvatlayotgan qarashni aniq bayon eta olishi, asos ko‘rsata olishi, bunday xulosa jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsata oluvchi omil ekanligini yoritib berishi talab qilinadi.

28. Fan ekspertlari tomonidan fanda (imlo qoidalari, ilmiy-nazariy qoidalari, turlicha ilmiy qarashlar nuqtayi nazaridan va h.) har xillik kuzatiladigan holatlarni aniqlay olishi va yuqorida sanab ko‘rsatilgan omillar ta’sirida yuzaga kelgan holatlarni xato sifatida talqin qilmasligi talab etiladi.

29. Fan eksperti tomonidan maxsus ko‘rsatkichlar yordamida (palitra yordamida) yozma ish matnidagi har bir xato belgilab (ostiga chizib), so‘z ustiga xato turi yozib ko‘rsatilishi (qizil rangda) talab qilinadi.

30. Yozma ishda tahrirlangan o‘rinlar (talabgor o‘z xatosini aniqlab, ustiga chizgan, qavsga olgan yoki bo‘yab to‘g‘rilagan bo‘lsa) xato sifatida belgilanmaydi.

31. Quyidagi hollarda yozma ish jami 2 ball bilan baholanadi:

- yozma ish yozilgan, lekin mavzuga mos bo‘lmasa (yozma ishning asosiy qismi yoki xulosa qismida vaziyatga mos bo‘lgan kamida bitta jumla mayjud bo‘lsa, “yozma ish mavzuga mos” deb qaraladi);

- yozma ish hajmi 100 ta so‘zdan (mustaqil va yordamchi so‘zlar) kam bo‘lsa.

32. Quyidagi hollarda yozma ish 0 ball bilan baholanadi:

- faqat kirish qismi yozilgan ishlar “topshiriq bajarilmagan” deb xulosalanadi va 0 ball bilan baholanadi;

- javoblar varaqasining yozma ish uchun belgilangan qismi ochiq qoldirilgan bo‘lsa, “topshiriq bajarilmagan” deb xulosalanadi va 0 ball bilan baholanadi;

- yozma ish matni to‘liq kirill alifbosida yozilgan bo‘lsa, tekshirilmaydi va 0 ball bilan baholanadi.

33. Fan eksperti yozma ish uchun mezon asosida qo‘yilgan umumiy ball yuzasidan xulosa sifatida taqriz yozib ishni yakunlashi lozim.